

## KOREYS TILIDA KO'MAKCHI FE'LLAR TASNIFI VA XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653492>

**Kamalova Shirin**

*SamDChTI o'qituvchisi*

*Tel: +998(93)831 55 15*

[Izzatzoda94@mail.ru](mailto:Izzatzoda94@mail.ru)

**Nazarova Maxliyo**

*SamDChTI Magistri*

*nazarovamaxliyo777@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu ilmiy maqola o'zbek va koreys tillaridagi ko'makchi fe'llar va ularning qo'llanilishi, ko'makchi fe'llarning matnda qo'shimcha ma'no yuklanishi o'rganilib, ularning chet tillarni o'qitishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil fe'l, yordamchi fe'llar, ko'makchi fe'llar, fe'ldan yasalgan ko'makchilar, ma'no ko'chishi, ko'makchi turlari, atributiv shakllar, asl ko'makchilar, ot ko'makchilar.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной научной статье рассматриваются вспомогательные глаголы в узбекском и корейском языках и их применение, добавление вспомогательных глаголов в текст, их значение в обучении иностранным языкам.*

**Ключевые слова:** *независимый глагол, вспомогательные глаголы, вспомогательные глаголы, семантическая форма, вспомогательные типы, атрибутивные формы, исходные вспомогательные глаголы, вспомогательные именные вспомогательные глаголы.*

### ABSTRACT

*This scientific article discusses auxiliary verbs in the Uzbek and Korean languages and their application, adding auxiliary verbs to the text, their importance in teaching foreign languages.*

**Keywords:** *independent verb, auxiliary verbs, auxiliary verbs, semantic form, auxiliary types, attributive forms, original auxiliaries, noun auxiliaries.*

## KIRISH

Koreys va o‘zbek tillarida fe’llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: 1) mustaqil fe’llar; 2) yordamchi fe’llar. 1. Mustaqil fe’llar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, nutqiy jarayonda biror gap bo‘lagi vazifasida ishlatiladigan fe’llardir. Mustaqil fe’llar turli grammatik kategoriyalarga birlashadigan sof fe’l va vazifadosh shakllardan tashkil topadi. Masalan: *keldim* — aniq nisbat, bo‘lishli, xabar mayli, o‘tgan zamon, birinchi shaxs, birlik kabilar muayyan grammatik kategoriyalarni ifodalovchi sof fe’llar hisoblansa; *kelgan* - sifatdosha, *kelgach* - ravishdosha, *kelish* -harakat nomi shaklida ekanligi esa fe’lning vazifadosh shakllaridir[6, 560]. 2. Yordamchi fe’llar mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmay, turli grammatik ma’no va vazifalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan fe’llardir. Yordamchi fe’llar o‘z xususiyatiga ko‘ra quyidagi turga bo‘linadi: 1) qo‘shma fe’l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe’llar. Masalan: *xabar qilmoq*, *xursand bo‘lmoq*, *tasdiq etmoq* kabi; 2) kesim tarkibida bog‘lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe’llar. Bu vazifadagi yordamchi fe’llarga a) leksik ma’nosini mutlaqo yo‘qotgan sof bog‘lamalar, ya’ni *edi*, *ekan*, *emish* to‘liqsiz fe’llari kiradi; b) leksik ma’nosini tamomila yo‘qotmagan *bo‘ladi*, *bo‘lmaydi*, *deyiladi*, *hisoblanadi* kabi bog‘lamalar kiradi; 3) fe’llarga birikib, turli qo‘shimcha ma’no ifodalovchi ko‘makchi fe’llar: *chiq-o‘qib chiq*, *qol-uxlab qol* kabi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Koreys tilshunosligida yordamchi so‘zlarni tadbiq etish masalasida, shu borada ish olib borgan Ha Guyi Nyo (하귀녀) o‘zining *국어 보조사의 역사적 연구* nomli ilmiy ishida yordamchi so‘zlar va ular borasida olib borilayotgan munozarali bahslar haqida so‘z yuritib o‘tgan.

Tilshunos olim D.A.Korpekaning “Koreys tilining grammatikasi” kitobida ko‘makchilar 후치사 deb nomlangan va o‘zbek tilidagi ko‘makchilar bilan deyarli bir xil izohlagan. Ko‘makchilarni 기본 후치사 - (asl ko‘makchilar), 명사 후치사 - (ot ko‘makchilar), 동사 후치사 - (fe’l ko‘makchilar)ga ajratgan. Yu.Mazurning “Koreys tili grammatikasi kitobida esa dominativ ko‘makchi turlari haqida atroflicha yoritilgan. Trofimenkoning “Koreys tili” kitobida esa fe’l ko‘makchilari etimologik jihatdan fe’llarga qaytishi va ushbu ko‘makchilarning aksariyati (hammasi emas) ikkita shaklda bo‘lishi mumkinligi tahlil etilgan. V.N.Kim, G.D.Yunusovalar “Koreys va o‘zbek tillarida ko‘makchi fe’llarning qiyosiy tahlili” o‘quv uslubiy qo‘llanmasida ko‘makchi fe’llarning tasnifi keng yoritib berilganligini ko‘rish mumkin. Ushbu ilmiy maqolada yuqoridagi tilshunos olimlarning ishlaridan

foydalanib koreys tilida ko‘makchi fe‘llarning turlari, matnda qanday qo‘llanilishi misollar orqali tahlili qilindi.

### NATIJALAR

Yordamchi fe‘llar o‘z mustaqil ma‘nolarini yo‘qotib, yetakchi fe‘l bilan birikib, asosiy qismdagi ma‘noga qo‘shimcha (tugallik, boshlanish, to‘satdan bo‘lganlik, tezlik, takroriylik, davomiylik kabi) ma‘nolarni beradi. Quyidagi fe‘llar yordamchi fe‘l vazifasida kelib 가다, 오다 davomiylik ma‘nosini, 내다, 버리다, 말다 tugallik ma‘nosini, 주다, 드리다 xizmat qilish ma‘nosini, 보다, 싶다 istak-umid ma‘nosini, 쌓다, 대다 takroriylik ma‘nosini, 있다 holat ma‘nosini, 놓다, 두다, 가지다 saqlash ma‘nosini ifodalab kelgan. [1,7]

가다, 오다 fe‘llari ko‘makchi fe‘l sifatida qo‘llanilganda, ular yetakchi fe‘l harakatining uzluksiz davom etayotganligini ko‘rsatadi, ya‘ni davomiylik, harakatning uzluksiz davom etishi, holatning o‘zgarish jarayonini ifodalab keladi. Agar harakat so‘zlovchi tomonidan boshqa tomonga yo‘naltirilgan bo‘lsa, 오다 ko‘makchi fe‘li bilan, agar harakat so‘zlovchi tomonidan boshqa tomonga yo‘naltirilgan bo‘lsa, unda 가다 ko‘makchi fe‘li qo‘llaniladi. Ushbu ko‘makchi fe‘llar yetakchi fe‘lga –아(어/여) 가다/오다 konstruksiyasi orqali birikib keladi. [1,10]

어린이들은 미래에 대한 꿈을 키워 가고 있다.

Yoshlar kelajak haqida orzu bilan o‘tib kelmoqda.

어머니는 항상 우리를 위해 살아 오셨다.

Onam doim biz uchun yashab kelgan.

Koreys tilida tugallik ma‘nosini anglatuvchi quyidagi ko‘makchi fe‘llar ko‘rsatilgan. 내다 o‘z kuchi bilan yoki mustaqil bajarilgan ish harakatni bildirganda, 버리다 biror ishni oxirigacha bajarish, tugatishni, 말다 oldingi ish harakatning tugatilganligini aytganda qo‘llaniladi. 내다, 버리다 yetakchi fe‘lga –아(어/여) 내다, 버리다 shaklida birikadi. 말다 fe‘li esa –고 말다 shaklida birikib keladi. [1,16]

우리 회사는 신제품을 개발해 내어 큰 수익을 얻었다.

Biz firmamiz mahsulotini rivojlantirib katta muvaffaqiyatga erishdik.

지수는 그에게서 온 편지를 찢어 버렸다.

Jisu undan kelgan maktuvni yirtib tashladi.

승규는 실수로 주스를 옷에 쏟고 말았다.

Singkyu tasodifan sharbatni kiyimiga tukib yubordi.

보다 biror ish harakat bajarishni urunib ko‘rish, tajriba qilib ko‘rishni ifodalashda qo‘llaniladi. 옷을 살 때에는 몸에 맞는지 한 번 입어 보고 사는 것이 좋다. *Kiyim sotib olayotganda uzimga mos kelish kelmasligini bilish uchun bir bor kiyib ko‘rgan maqul.* 나는 대학생 때 처음으로 데이트를 해 보았다. *Men talabalik davrimda ilk bor uchrashuvga chiqib ko‘rganman.*

쌔다 biror ish harakatning sodir bo‘lishi yoki takroriy bajarilishining eng kuchli darajasini bildirib keladi. 아이가 세 시간째 울어 쌔는다. Bola uch soatdan beri yig‘lab yotibdi.[8,605]

대다 ham xuddi shu ma‘noda, ya‘ni takroriylik ma‘nosini ifodalab keluvchi yordamchi fe‘l hisoblanadi. 지수는 입만 열면 거짓말을 해 대니 믿을 수가 없다. Jisu og‘zini ochishi bilan yolg‘on so‘zlagani uchun ishonib bo‘lmaydi.

Yordamchi fe‘llardan yana biri 놓다 fe‘li bo‘lib, mustaqil fe‘l bo‘lganda qo‘ymoq fe‘lini bildirsa, -어 놓다 birikmasi shaklida kelib oldingi gapda tugallangan bir ish harakatning natijasini saqlab qolish ma‘nosini bildirib keladi.

나는 손님들이 오기 전에 미리 음식들을 준비해 놓았다. Mehmonlar kelishidan oldin ovqatlarni tayyorlab qo‘ydim. [8,250] Bundan tashqari, -어 놓다 qo‘shimchali ko‘makchi fe‘li qo‘shma gap yasashda qo‘llanilib, bir holatning davomiyligini anglatib keladi. Masalan, 날씨가 너무 더워 놓으니까 조금만 걸어도 땀이 난다. *Havo juda issiq bo‘lib qolganligi sabab birozgina yursam ham terladim.*

두다 fe‘li solmoq, qo‘ymoq, qoldirmoq ma‘nolarida kelib, -어 두다 birikmasida ko‘makchi fe‘l bo‘lib qoldirmoq ma‘nosida keladi. Ya‘ni, oldingi gapda bajarilgan ish harakatning natijasini saqlab qolish ma‘nosini ifodalashda qo‘llaniladi[5,854]. 지수는 내일은 시간이 없을 것 같아 오늘 미리 숙제를 해 두었다. Jisu ertaga vaqtim yo‘q bo‘ladigan ko‘rinib bugun oldindan uyga vazifani qilib qo‘ydi.

### Fe‘ldan yasalgan ko‘makchilar

Koreys tilida nafaqat ko‘makchi fe‘llar mavjud balki, fe‘l bilamn yasalgan ko‘makchilarning uzi ham mavjud. Fe‘l ko‘makchilari etimologik jihatdan fe‘llarga qaytadi. Ushbu ko‘makchilarning aksariyati (hammasi emas) ikkita shaklda bo‘lishi mumkin. (4, 219)

Qabul qilingan shaklning belgisi - ~한, oxiri, atributiv shaklga o‘tish ~ㄴ / ~은 fe‘l 하다 va verbal yakunning belgisi ~~하여(eski kitob tilida ~하야) yoki ~해(서) o‘zidan oldingi fe‘lning 하다 bo‘lagiga ko‘tarilish, ba‘zi holatlarda, ~~하고 og‘zaki shaklning oxiri sifatida ishlatiladi Shuni ta’kidlash kerakki, bir qator og‘zaki

ko'makchilar faqat og'zaki shaklga ega bo'lishi mumkin; morfologik nuqtai nazardan, bunday ergash gaplarni:

a) fe'llarning 3-o'zagi bilan mos keladigan shaklga (masalan, 보아, 아울러),

b) bir xil shaklga ega bo'lgan, lekin qo'shimcha morfema bilan murakkablashganlarga bo'linadi. (misol uchun, 하여금, 와서) va c) ~고 bilan bog'lovchi omonim (masalan, 불구하고, 물론 하고, 무릅 쓰고) (3,87)

Ba'zi ko'makchilar formant emas, balki bevosita tegishli grammatik belgilarni biriktirish orqali o'z shakllarini hosil qiladi: ~ㄴ / ~은 dagi atributiv shakl.

| Taxminiy shakl | Fe'lli shakl  | Ma'nosi                             |
|----------------|---------------|-------------------------------------|
| 관한             | 관하여 / 관해(서)   | haqida, to'g'risida                 |
| 대한             | 대하여 / 대해(서)   | haqida, to'g'risida                 |
| 위한             | 위하여 / 위해(서)   | uchun                               |
| 의한             | 의하여 / 의해(서)   | tufayli, minnatdorlik orqali        |
| 통한             | 통하여 / 통해(서)   | orqali                              |
| 비롯한            | 비롯하여 / 비롯해(서) | tomonidan boshlanib                 |
| 처한             | 처하여 / 처해(서)   | munosabati bilan                    |
| 향한             | 향하여 / 향해(서)   | tomon                               |
| 비한             | 비해(서)         | bilan solishtirganda                |
| 불구한            | 불구 하고         | ga qaramay                          |
| 인한             | 인하여           | tufayli                             |
| 있어(서)의         | 있어(서)         | ichida                              |
| 걸친             | 걸쳐            | davomida                            |
| 제한             | 제하여 / 제해(서)   | vaqti-vaqti bilan, munosabati bilan |
|                | 따라            | tomonidan, ko'ra, muvofiq           |

김씨는 한국전쟁에 관한 자료를 모읍니다.

Janob Kim Koreya urushi haqidagi hujjatlarni to'playdi.

그일에 대해서는 아직 말씀드릴 것이 없습니다.

Hozircha bu ish bo'yicha aytadigan gapim yo'q.

공장과 운수를 위한 연료를 더 많이 생산 하라!

Zavodlar va transport vositalari uchun ko'proq yoqilg'i!

실습을 통해 이론을 익히다.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim fe'l ergash gaplar zamonaviy tilda mustaqil qo'llanishda uchramaydigan fe'llardan yasaladi (처한, 더불어 va h.k.), ba'zilar mustaqil qo'llanishda faqat yashash hodisasi sifatida saqlangan (관한 tegishli fe'lidan 관하다, 의한 tegishli, 의하다 fe'lidan h.k.); asl fe'llari mustaqil so'z vazifasini davom ettiradigan ko'makchilar ham bor.

### MUHOKAMA

Yordamchi fe'llar o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotib, yetakchi fe'l bilan birikib, asosiy qismdagi ma'noga qo'shimcha (tugallik, boshlanish, to'satdan bo'lganlik, tezlik, takroriylik, davomiylik kabi) ma'nolarni beradi. Quyidagi fe'llar yordamchi fe'l vazifasida kelib 가다, 오다 davomiylik ma'nosini, 내다, 버리다, 말다 tugallik ma'nosini, 주다, 드리다 xizmat qilish ma'nosini, 보다, 싶다 istak-umid ma'nosini, 쌓다, 대다 takroriylik ma'nosini, 있다 holat ma'nosini, 놓다, 두다, 가지다 saqlash ma'nosini ifodalab kelgan. Ko'makchi fe'llar koreys tilida ham o'zbek tilida ham mustaqil ma'noga ega bo'lishi mumkin, shu bilan birga mustaqil fe'llar bilan birgalikda ko'makchi vazifasida o'z holatini o'zgartirib keladi. Ushbu transpozitsion o'zgarishni koreys tilini o'rgatishda ahamiyatini bilgan holda, ushbu maqolada fe'llarning ko'makchi vazifasida qanday ma'nolarda qo'llanilishini tahlil qilib chiqdik. Yuqorida keltirib o'tilgan fe'llarimiz o'zi mustaqil holda ham qo'llanilishi mumkin, lekin ko'makchi bo'lganda o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, qo'shib kelayotgan mustaqil fe'lning ma'nosiga davomiylik, tugallik, takroriylik, holat kabi qo'shimcha ma'noviy jilvadorlik qo'shib keladi. Ko'makchi fe'llarning ma'nosini yaxshi bilishimiz til o'rganish va o'rgatishda juda muhim hisoblanadi. Biror asarni tarjima qilishda asl va ko'makchi ma'nolarini bilishimiz zarur, aks holda tarjima qilishda qiyinchilik tug'ilishi mumkin.

### XULOSA

Ushbu yordamchi fe'llar mustaqil fe'l sifatida ham qo'llaniladi, lekin transpozitsiya hodisasi asosida yordamchi, ya'ni ko'makchi fe'l vazifasida keladi. Yordamchi fe'llar gap ma'nosini kuchaytirib, qo'shimcha ma'no yuklab keladi. Xorijiy tillarni o'rgatishda yordamchi fe'llarning o'z ma'nosini va ko'makchi fe'l ma'nosini farqlash lozim hisoblanib, aks holda, matn tarjimasi o'zgarib ketishi, so'zlovchining fikri noto'g'ri yetkazilishi mumkin. Shu sababli, ko'makchi fe'llarning qanday ma'nolarda qo'llanilishi holatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. Kim V.N., Yunusova G.D. Koreys va o‘zbek tillarida ko‘makchi fe’llarning qiyosiy tahlili – T. Sharqshunoslik instituti o‘quv uslubiy qo‘llanma, 2009.-5-20-b.
2. Мазур Ю. Н. Падежи и послелого в корейском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. — М.: Моск. ин-т востоковедения, 1953. — С. 3-5.
3. Мазур Ю. Н. Склонение в корейском языке. — М.: Изд-во Моск.ун-та, 1962. — С. 101.
4. Трофименко О. А. Корейский язык. Справочник по грамматике. — М.: Живой язык, 2015. — С. 219.
5. Фуркатовна, Б.И. (2021). ДИСКУРСИО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СТАТЕЙ О КОНЦЕПТЕ "/ЧЕЛОВЕК" 사람. Международный журнал менеджмента , 12 (2).
6. Эшимова, Ш. 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2 (75) (апр. 2020), 81–86.
7. 남 승 호. 한국어 이동 동사의 의미구조와 논항교체,- 서울대학교 Nam, Seungho. (2003). Lexical semantic Structures and argument alternations of movement verbs in Korean. Language Research 39(1), 111-145
8. 이기문. 새국어사전. 서울. 2004. -2150 b. 새한노사전. 서울.: 한국외국어대학교출판부. 2009. 1312 b.
9. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.
10. Furkatovna, B. I. (2021). DISCURSIVE-PRAGMATIC FEATURES OF KOREAN AND UZBEK ARTICLES ON THE CONCEPT OF"/MAN" 사람. International Journal of Management, 12(2).
11. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA MA'NOSIGA KO'RA TURLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
12. Shuhratova, V., & Amanullayeva, K. (2021). KAZUO ISHIGURONING" DAFN ETILGAN GIGANT" ASARIDA FANTASTIK G'OYALAR TALQINI. Интернаука,(28-2), 67-68. 9. Амануллаева, КМ О ХУДОЖЕСТВЕННОМ КОНЦЕПТЕ И В ЦЕЛОМ. ББК 74.48 Р, 76, 271
13. Ачилова, О. (2020). Средства выражения содержания приказа в японском языке. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74), 62–65. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/1274](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1274)

14. Ачилова, О. (2016). Использование императивной формы в японском языке. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(1 (58), 88–90. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/185](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/185)
15. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
16. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
17. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
18. Odil ogli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
19. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
20. Odil o'g'li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.